O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

TIBBIY-PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK-KOMPETENSIYAVIY ASOSLARI

Nosirov Nodirbek Valijonovich

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute, mustaqil tadqiqotchi.
e-mail: nosirovnodirbek17@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada texnologiyalar yordamida tibbiy-pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari, o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, o‘qituvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan. O‘qituvchilarni tayyorlashda loyihaviy yondashuvga asoslangan yangi pedagogik usullarni ishlab chiqish, ijodiy va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek, talabalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Maqolada o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirishga qaratilgan texnologiyalardan foydalanish bosqichlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy mahorat, tibbiy-pedagoglar, metodik kompetentlik, malaka, o‘qitish, loyihaviy yondashuv, loyihalash texnologiyasi.

МЕТОДИКО-КОМПЕТЕНТНОСТНЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ МЕДИЦИНСКИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Носиров Нодирбек Валиджонович

Ферганский медицинский институт общественного здоровья, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются функции повышения методической компетентности медицинских педагогов с использованием современных технологий, вопросы более эффективной организации учебного процесса, формирования инновационного мышления преподавателей и совершенствования их практических навыков. Рассматривается значение разработки новых педагогических методов, основанных на проектном подходе, развития творческих и аналитических способностей, а также формирования навыков эффективного взаимодействия со студентами в процессе подготовки преподавателей. В статье также освещаются этапы применения технологий, направленных на повышение методической компетентности преподавателей.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, медицинские педагоги, методическая компетентность, квалификация, обучение, проектный подход, технология проектирования.

METHODOLOGICAL AND COMPETENCY-BASED FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE TECHNOLOGY OF PREPARING MEDICAL EDUCATORS FOR PROFESSIONAL PRACTICE

Nosirov Nodirbek Valijonovich

Fergana Medical Institute of Public Health, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the functions of enhancing the methodological competence of medical educators through modern technologies, with particular attention to the effective organization of the educational process, the development of innovative thinking, and the improvement of practical skills. It examines the importance of developing new pedagogical methods based on a project-based approach, fostering creative and analytical abilities, and developing effective communication skills with students in the preparation of educators. The article also outlines the stages of applying technologies aimed at improving the methodological competence of medical educators.

Keywords: professional competence, medical educators, methodological competence, qualification, teaching, project-based approach, project technology.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga munosib hissa qo‘sha oladigan, mehnatda o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bugungi kunning asosiy talabidir.

Tibbiy-pedagoglarning o‘quv va metodik faoliyatini ko‘rib chiqishda, izoh tariqasida, “metodik kompetentlik” atamasi mualliflik atamasi sifatida izohlab o‘tiladi. Deyarli barcha mualliflar — N. A. Muslimov, O‘. Q. Tolipov, Sh. S. Sharipov, T. N. Gushchina, N. V. Teltevskaya, V. D. Simonenkolar metodik kompetentlik insonning o‘z kasbiy ma’lumot darajasi, tajribasi va individual qobiliyatlari, uning doimiy o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini takomillashtirishga intilishi, faoliyatga ijodiy va mas’uliyatli munosabati bilan belgilanadi, degan fikrni beradilar.

Tibbiy-pedagoglarning metodik kompetentligi — bu faqat bilimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan emas, balki ularning amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va o‘quvchilarning texnologik faoliyatga qiziqishini uyg‘otishga qaratilgan kompleks jarayondir. Tibbiy-pedagogning o‘z o‘quv faoliyatida zamonaviy pedagogik va metodologik yondashuvlar va didaktik prinsiplardan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda yuqori samaradorlikka erishishi tushuniladi.

Tibbiy-pedagogning metodik kompetentligi — bu mutaxassisning shaxsiy sifatlari (mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini o‘zi takomillashtirish va boshqalar) hamda pedagogik va amaliy faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir. Tibbiy-pedagog o‘z faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri va samarali tashkil etish uchun bir qator tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak:

— birinchisi — pedagogik tayyorgarlik. Bunda o‘qituvchi pedagogika, psixologiya va ta’lim metodikasini yaxshi o‘zlashtirishi lozim. Buning uchun u ta’limning asosiy prinsiplarini, o‘qitish usullarini, o‘quv jarayonidagi o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini bilishi zarur;

— ikkinchisi — metodik tayyorgarlik. Bunda o‘qituvchi fanini o‘rgatish usullarini, o‘quv materiallarini tanlash, shunday tarzda ishlashni o‘z ichiga oladiki, o‘quvchilarning qiziqishini qozonish, ularga yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Tibbiy-pedagog faqat fanni o‘rgatib qo‘yish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning konstruktorlik-texnologik ko‘nikmalarini shakllantirishga ham mas’uldir. Ularning funksional vazifalari konstruktorlik-texnologik ishlanmalarni tayyorlash, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatishdan iborat. Shu bilan birga, o‘quv-bilish metodlarini to‘g‘ri tanlash, mustaqil ishlash, guruhda ishlash, amaliy mashg‘ulotlar, keys-stadilar, modellashtirish va boshqa innovatsion o‘qitish metodlaridan foydalanish lozim. Ushbu metodlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga yordam beradi;

— uchinchisi — amaliyotga yo‘naltirilgan tayyorgarlik. Bunda ta’limning muhim jihatlaridan biri amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishda ko‘rinadi. Ushbu amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. Tibbiy-pedagog bu jarayonda talabalarga yangi texnik vositalar va materiallar bilan ishlashni o‘rgatishi, ishlab chiqarish jarayonini kuzatish va texnologik tajribalarni o‘rganishga yo‘naltirishi maqsadga muvofiq;

— to‘rtinchisi — ijodiy va tahlil qilish kompetensiyalarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati. Bunda tibbiy-pedagog yangi texnologiyalar va metodikalardan foydalanishga tayyor bo‘lishi, yangi ishlanmalarni tahlil qilishi va ularga yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi zarur. Ushbu qobiliyat o‘quvchiga yangi bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni samarali o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi;

— beshinchisi — innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Ushbu yo‘nalishda ta’limning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet resurslari, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tibbiy-pedagog zamonaviy dasturiy ta’minot va texnik vositalardan foydalanishni o‘rganishi maqsadga muvofiq;

— oltinchisi — ta’limni tashkil etish va o‘quvchilar bilimini baholash usullarini bilish. Bu, ya’ni o‘qituvchining metodik kompetentligining yana bir muhim qismi — ta’lim jarayonini samarali baholash usullarini ishlab chiqishdir. Tibbiy-pedagog talabalarning bilimini tekshirish, amaliy ish natijalarini baholash va ularning ishlanmalariga baho berishda samarali usullarni qo‘llashi lozim.

Metodik kompetentlikni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish metodikasi hozirgi paytda ta’lim tizimida ro‘y

berayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi yangicha voqealar bilan bog‘liq o‘zgarishlar, jahon ta’lim makoniga intilish, yangi axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi o‘qituvchi tayyorlashning an’anaviy doiralaridan chiqishning yangi yo‘llari haqida o‘ylashga, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni izlab topishga majbur qilmoqda.

Metodik kompetentlikning tuzilishini ko‘rib chiqishdan oldin uni takomillashtirish talabaning OTM bosqichining dastlabki bosqichlaridan boshlanishi kerak, degan fikrga to‘xtalamiz. Tibbiy-pedagoglarning metodik kompetentligini shakllantirishda umumiy kasbiy tayyorgarlik fanlari muhim rol o‘ynaydi. Metodik kompetentlik tarkibida olimlar quyidagi tarkibiy qismlarni ajratadilar: shaxsiy, faoliyatli, intellektual va boshqalar. Tibbiy-pedagoglarning metodik kompetentligini takomillashtirish tamoyillari: pedagoglarning metodik kompetentligini takomillashtirishning integrativ tamoyili; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning elementar mexanizmlaridan ongli ravishda boshqariladigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan jarayonga o‘tish tamoyili; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonida pedagogik baholash, o‘zini o‘zi baholash va refleksiv tamoyili; pedagogik (didaktik) jarayonni loyihalash; o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishning individual harakat yo‘nalishi tamoyillari; pedagoglarning metodik kompetentligini bosqichma-bosqich takomillashtirish tamoyili.

Tibbiy-pedagogning metodik kompetentlik tushunchasini shakllantirish kasbiy kompetentlik tushunchasiga murojaat qilishni talab qiladi. Ushbu shaxsiy xususiyatning taniqli ta’riflarining keng doirasi faqat yuqorida keltirilgan umumiy kompetentlikni tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan talqinlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Tibbiy-pedagogning metodik kompetentligining funksiyalari: metodologik yondashuv; kommunikativ yondashuv; individual talablar; malaka talablari; xususiy holati. Tibbiy-pedagogning metodik kompetentligining funksiyalari jamoada va undan tashqarida turli darajadagi munosabatlarni o‘rnatish uchun metodik faoliyatning muhimligini anglatadi: talaba-talaba, talaba-o‘qituvchi, talaba-texnika va boshqalar.

Tibbiy-pedagogning metodik kompetentligini takomillashtirishning to‘rtta quyi tizimi mavjud: didaktik vositalar (munozaralar, dialoglar, pedagogik vaziyatlar, loyihaviy suhbat) o‘qituvchining o‘quv va ishlab chiqarish faoliyatida munosabatlarni o‘rnatishga tayyorligini takomillashtirishga va pedagogik ishning ahamiyatini tushunishga yordam beradigan motivatsion komponentni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega; innovatsion vositalar (keys-metodi, proyeksion faoliyat, testlar) operatsion-faoliyat komponentini takomillashtirishda samarali o‘quv va ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon yaratadi; taqlid qilish (imitatsion) vositalari (ishbilarmonlik o‘yinlari: imitatsion, rolli o‘yinlar) pedagogning o‘quv va ishlab chiqarish rollarini o‘ynashga qaratilgan kommunikativ va refleksiv komponentlarni takomillashtirish uchun ahamiyatli; analitik vositalar (pedagogik muammoli vaziyatlar, seminarlar) pedagogning metodik kompetentligining kognitiv tarkibiy qismini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan texnologiyalar bo‘lib, ularning mazmuni o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘quv va ishlab chiqarish ishlarida o‘zaro munosabatlarni ishlab chiqishdir.

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma va malakadan farq qiladi. O‘qituvchining metodik kompetentligining tarkibiy tuzilmasi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Metodik kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi.

Maxsus kompetentlik — kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Tayanch va kasbiy kompetensiya — bu talabaning OTM bosqichida ega bo‘lgan kompetentliklar majmui sanaladi. U quyidagi tayanch kompetentliklarni o‘z ichiga oladi: axborotlar bilan ishlash, kommunikativ, mustaqil, ijodiy, ijtimoiy.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi — bu muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish, o‘zgartirish va qo‘llash qobiliyati.

Kreativ kompetensiya — o‘qituvchi kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglash ko‘rsatkichidir. Bu axloqiy madaniyatni, ideallarni, ma’naviy qadriyatlarni tavsiflaydi; asosiy kompetensiya — bu talaba OTMda (uning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyatida dastlabki tajribaga ega bo‘lganda) shakllanadigan kompetensiya hisoblanadi. U quyidagi asosiy (maxsus) kompetentliklarni o‘z ichiga oladi: maqsadli, tashkiliy, tarkibiy, loyihalash, monitoring.

Texnologik kompetentlik — talabalarni ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni bilishning aniq usuli sifatida tanishtirish, sohaga oid innovatsion texnologiyalar va voqelikning dialektik o'zaro bog'liqligini tushunishini shakllantirish, bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga tayyorlash imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Kommunikativ kompetensiya — bu boshqa insonlar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyati; mustaqil kompetensiya — bu o'rganishga mustaqil ravishda yondashish, maqsadlarni belgilash, natijalarni rejalashtirish qobiliyati. Ijodiy kompetensiya — bu ijod qila olish, mustaqil izlanish qobiliyati.

Keltirilgan kompetensiyalar o'qituvchining metodik tayyorgarligida namoyon bo'ladi.

Tibbiy-pedagoglarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida katta ahamiyatga egadir. Talabalar jahon talablariga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun o'qituvchilar doimo o'sib borishi, o'z ustida ishlashi zarur. Shu maqsadda oliy ta'lim tizimida loyiha texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Loyiha texnologiyalari — talabalar va o'qituvchilar tomonidan muayyan muammoni hal qilish yoki maqsadga erishish uchun loyihalar ustida ishlash orqali amalga oshiriladigan ta'lim jarayonidir. Bu yondashuvda ta'lim jarayoni an'anaviy metodlarga emas, balki amaliy va mustaqil ta'lim usullariga asoslanadi. Loyihaga asoslangan texnologiyalar orqali o'qituvchilar va talabalar mavzu yoki muammo ustida birgalikda ishlaydi va natijaga erishish uchun aniq qadamlarni bajaradi.

O'qituvchilarning metodik kompetentligini oshirishda loyihalash texnologiyalarining ahamiyati quyidagilardan iborat:

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish: loyihalar ustida ishlash o'qituvchilarga muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash va fikr yuritish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Bu ularning o'quv jarayonida yanada samarali ishlashiga yordam beradi;

Ijodkorlik va innovatsion yondashuv: loyihaviy yondashuv ijodkorlikni talab qiladi, bu esa o'qituvchilarga darslarini qiziqarli va samarali o'tkazish uchun turli yangiliklarni amalga oshirish imkonini beradi. O'qituvchilar rivojlanish jarayonida loyihalarni amalga oshiradilar, ular yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal qilishda innovatsion usullardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

Hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish: loyihaga asoslangan texnologiyalar jamoaviy ishlashga yordam beradi, chunki loyihalarda ko'pincha bir nechta o'qituvchilar birgalikda ishlaydi. Bu ularga bir-birining tajribasidan o'rganish, samarali muloqot va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi;

Texnologiyalarni qabul qilish: zamonaviy ta'limda turli texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Loyihalar ustida ishlash o'qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanishni o'zlashtirish imkonini beradi.

Loyiha texnologiyalari o'qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qiladi:

Amaliy tajribani oshiradi: loyihalar amaliy tajribani oshirishning ajoyib usuli. Loyihalarda ishtirok etish orqali o'qituvchilar o'zlarining kasbiy mahoratlarini amalda mustahkamlaydilar, o'zlariga yangi ko'nikmalar qo'shadilar;

O'qitishning yangi usullaridan foydalanishni rag'batlantiradi: loyihalar o'qituvchilarni o'z darslarida yangi pedagogik va didaktik usullardan foydalanishga undaydi. Masalan, analitik va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan tanishtirish, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va ular bilan muntazam muloqot qilish;

O'zaro tajriba almashish: loyiha texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarni tajriba almashishga undaydi. Masalan, loyiha davomida o'qituvchilar o'z hamkasblari bilan o'qitish usullari, didaktik materiallar va boshqa qo'shimcha manbalar bilan bo'lishishlari mumkin;

Kasbiy malaka oshirish kurslari va seminarlari: loyiha texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun o'qituvchilar turli o'quv kurslari va seminarlarga jalb etilishi mumkin. Ushbu tadbirlarda o'qituvchilar loyiha yaratish va ulardan foydalanishning amaliy usullarini o'rganadilar;

Baholash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi: loyihalarda ishtirok etish orqali o'qituvchilar nafaqat o'zlarining, balki boshqa o'qituvchilarning ishini ham baholash imkoniyatiga ega. Bu ularni mustaqil ravishda o'z-o'zini baholash va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishga o'rgatadi.

TAVSIYALAR

O'qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish va ularning jarayon yo'nalishi va muammoni qo'yish bilan muvofiqligi asosida tavsiyalar tayyorlanadi, bunday innovatsion texnologiyadan amaliy foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Funksiyalardan samarali foydalanish o'qituvchilarga o'z malakalarini oshirish, shuningdek, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish funksiyalari va loyiha texnologiyalari katta rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarning o'z ustida ishlashlari, yangi pedagogik va texnik ko'nikmalarni o'zlashtirishlari, ijodkorlik qobiliyatini oshirishlari va jamoaviy ish faoliyatini rivojlantirishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'qituvchilar metodik kompetentligini oshirib, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishlari mumkin. Bu, o'z navbatida,

o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyat qozonishi uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son *«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida*gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son *«Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»*gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son *«Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»*gi Qarori.
4. Muslimov N. A., Qo‘ysinov O. A. *Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish: metodik qo‘llanma.* – Toshkent: TDPU, 2006. – 46 b.
5. Muslimov N. A. *Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish: monografiya.* – Toshkent: Fan, 2004. – 128 b.
6. Nosirov N. V. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS).* – 2022. – Vol. 2, No. 4. – B. 81–85. – ISSN 2181-2454. – DOI: 10.24412/2181-2454-2022-4-81-85
7. Nosirov N. V. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish mezonlari / Criteria for the Development of Methodological Competence of Future Teachers of Technology // *International Journal on Integrated Education.* – 2023. – Vol. 6.
8. Nosirov N. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari // *Scientific Journal of the Fergana State University.* – 2023. – № 1. – B. 207.
9. Nosirov N. V. Education of Future Technological Education Teachers: Forming the Skills of Using Technologies // *International Scientific and Current Research Conferences.* – 2023. – P. 13–16.
10. Nosirov N. V. Future Teachers of Technology: Methodological Competence Formation Factors // *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices.* – 2023. – Vol. 1, No. 2. – P. 32–37.
11. Nosirov N. V. Preparing Future Technological Education Teachers for Methodological-Innovative Activity // *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research.* – 2023. – Vol. 10, No. 10. – P. 300–303.
12. Nosirov N. V. Teaching Methods for Future Technological Education Teachers in Specialist Subjects Based on Digital Technologies // *International Scientific and Current Research Conferences.* – 2023. – P. 8–11.